

Tasdiqlayman

"ANOR BANK" AJ

Boshqaruv raisi

Akramov Sh.S.

"Anor Bonus" AKSIYASI O‘TKAZISH QOIDALARI

1. Ushbu Qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (bundan keyin O‘zR FK deb yuritiladi) 367-moddasi hamda 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Mazkur Qoidalar aksiyada ishtirok etish shartlarini, G‘oliblarni aniqlash va Sovrinlarni topshirish tartibini, shuningdek, "Anor Bonus" aksiyasini tashkil etish va o‘tkazishning boshqa muhim holatlarini batafsil bayon etadi. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi hududida "ANOR BANK" AJni ommalashtirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbirni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Aksiya tashkilotchisi - Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayram ko‘chasi, 5tor ko‘cha, 4A-uyda joylashgan "ANOR BANK" AJ hisoblanadi.
3. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin emas. Aksiya ishtirokchilari unda qatnashish bilan bog‘liq hech qanday mulkiy xavf-xatarni o‘z zimmalariga olmaydilar. Aksiyani o‘tkazish jarayoni hech qanday to‘lov kiritishni talab etmaydi, sovrin jamg‘armasi esa faqat Tashkilotchining o‘z mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.
4. Sovrin jamg‘armasi va Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar Tashkilotchining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.
5. **Aksiya o‘tkazilish muddati:** 2026-yil 17-martdan 2026-yil 18-iyungacha (shu kunlar ham kiritilgan).
6. **Aksiyada ishtirok etish shartlari:**
 - Aksiya ishtirok etish uchun mobil ilovani eng so‘nggi 2.25.0 versiyaga yangilash kerak. Aksiya davomida Anorbank mobil ilovasi orqali mikroaym olgan va rasmiylashtirishning barcha bosqichlaridan — antifrod tekshiruv, kontakt-markaz qo‘ng‘irog‘i hamda mablag‘larni blokdan chiqarish jarayonidan o‘tgan mijoz aksiya ishtirokchisi hisoblanadi. Bunday mijozga virtual “Omad g‘ildiragini” bir marta aylantirish imkoniyati beriladi.
 - G‘ildirakda haqiqiy kafolatlangan sovg‘alar - ham raqamli (obunalar, chegirmalar va boshqalar), ham moddiy (brend mahsulotlari va texnika) joylashtirilgan.
 - Raqamli sovg‘alar ilovada darhol taqdim etiladi.
 - Moddiy sovg‘alar g‘olib aniqlangandan so‘ng, bank bilan bog‘lanish orqali topshiriladi.
 - Har bir mijoz faqat bitta sovg‘ani yutib olishi mumkin.

7. Aksiyaning sovg'alar jamg'armasi:

1. Toifa

1.1. Turli xil servislar uchun obunalar va promo-kodlar.

2. Toifa

2.1. Shopper sumkasi — 600 dona.

2.2. Termokrujka — 1200 dona.

2.3. Powerbank — 1200 dona.

3. Toifa

3.1. Apple aqlli soati — 30 dona.

3.2. Xiaomi robot changyutgichi — 30 dona.

3.3. Yandex.Mini — 90 dona.

4. Toifa

4.1. iPhone 17 Pro — 30 dona.

4.2. Noutbuk — 15 dona.

4.3. Samsung televizori — 15 dona.

5. Toifa

5.1. BYD Seagul avtomobili — 3 dona.

5.2. BYD Yuan Up avtomobili — 3 dona.

8. Jadvalda ko'rsatilgan barcha sovg'alar ishtirokchilarga ilovadagi Omad g'ildiragini aylantirish natijalariga muvofiq beriladi.

9. Toifalar bo'yicha taqsimot:

5 mln so'mgacha — 1–2 toifadagi sovg'alar.

10 mln so'mgacha — 1–4 toifadagi sovg'alar.

10 mln so'mdan yuqori — 1–5 toifadagi sovg'alar.

10. Raqamli sovrinlar darhol faollashtiriladi. Moddiy sovrinlar g'oliblari pushbildirishnoma, qo'ng'iroq yoki xabar orqali xabardor qilinadi. Shuningdek, ular Tashkilotchiga zarur ma'lumotlarni (JSHSHIR va shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi) taqdim etishlari shart.

11. G'olibga moddiy sovrinni topshirish muddati - barcha talab qilingan ma'lumotlar taqdim etilgan taqdirda, G'olib e'lon qilingan kundan boshlab 90 (to'qson) kalendar kunni tashkil etadi.

12. G'olib sovg'asini tanlash butunlay tasodifiy tarzda quyidagi matematik model asosida amalga oshiriladi:

1) Matematik model 2 qismdan iborat: **Qolgan sovgʻalar sonini hisoblovchi hisoblagich.** Ushbu qism aksiyada mavjud sovgʻalardan ortiqcha tarqatilmasligini taʼminlaydi, chunki har bir oʻyin natijasida sovgʻalar soni kamayib boradi.

2) **Tasodifiy sovgʻani tanlovchi funksiya.**

Bu qism esa har bir sovgʻaning aksiyada mutlaqo tasodifiy tarzda tanlanishini kafolatlaydi. JAVA dasturlash tilida yozilgan implementatsiya bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

<https://github.com/OfficialKepik/spinalgorithm-with-3categories>

13. Sovgʻalarni topshirish bilan bogʻliq barcha soliqlarni toʻlash mijozning oʻz zimmasiga yuklanadi.

Sovgʻalar Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 377moddasi 5-bandiga muvofiq jismoniy shaxslarning daromad soligʻiga tortiladi.

14. Aksiyada ishtirok etish Aksiya ishtirokchisining anorbank.uz saytida joylashtirilgan ushbu Qoidalarni toʻliq va soʻzsiz qabul qilganligini, shuningdek, taqdim etilgan shaxsiy maʼlumotlarni qayta ishlashga rozilik berganligini anglatadi.

Tashkilotchi Aksiyaning oʻtkazilishi haqida xabardor qilish maqsadida, shuningdek

Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan maqsadlarda Ishtirokchilar bilan toʻgʻridantoʻgʻri aloqalarni (pochta, elektron pochta yoki SMSxabar yuborish orqali) amalga oshirishi mumkin.

Ishtirokchi Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda shaxsiy maʼlumotlarini qayta ishlashga, jumladan toʻplash, saqlash, foydalanish, tarqatish va yoʻq qilishga oʻz roziligini beradi.

Shaxsiy maʼlumotlarni qayta ishlashga jalb etiladigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi "ANOR BANK" AJga berilgan boʻlib, qoʻshimcha kelishuvni talab etmaydi.

15. Aksiya gʻolibi oʻzining ismi, familiyasi va sovrin bilan tushirilgan suratini anorbank.uz saytida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda hamda boshqa ommaviy axborot vositalarida (Instagram, Facebook, YouTube va boshqalar) joylashtirish uchun roziligini beradi.

16. Mazkur Qoidalar buzilgan taqdirda, Tashkilotchi ishtirokchini hech qanday tushuntirishsiz ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

17. Ishtirokchi notoʻgʻri maʼlumotlar taqdim etishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan barcha salbiy oqibatlar xavfini oʻz zimmasiga oladi.

18. Aksiya natijalari yakuniy va qatʼiy hisoblanadi, ularga eʼtiroz bildirib boʻlmaydi.

19. Ishtirokchi Tashkilotchiga murojaat qilib, aksiyada ishtirok etishdan voz kechish huquqiga ega.

20. Tashkilotchi ishtirokchilarning aksiyada qatnashish bilan bogʻliq xarajatlarini qoplamaydi, shuningdek, texnik nosozliklar, uchinchi shaxslarning harakatlari va bartaraf etib boʻlmaydigan vaziyatlar uchun javobgar boʻlmaydi.

21. "ANOR BANK" AJ xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari ushbu aksiyada ishtirok eta olmaydilar.

- 22.** Tashkilotchi anorbank.uz saytida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali aksiya shartlariga o'zgartirish kiritish va/yoki uni to'xtatib qo'yish huquqiga ega.
- 23.** Agar G'olib 10 kalendar kun ichida Tashkilotchi bilan aloqaga chiqmasa, uning yutug'i bekor qilinadi.